

ILTIFOT VA ETIKETNING IJTIMOYIY-MADANIY ME'YORLARI

Sadikov Erkin Tursunovich

Xalqaro TESOL/TEFL treneri,

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Elektron manzili: sadikoverkin@gmail.com

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

iltifot, nutq aktlari, etiket, etika, pragmatika, mehmondo'stlik, plyuralizm, madaniyat, turizm.

Annotatsiya

Turli madaniyatlarga mansub ingliz tilida so'zlashuvchilar soni global miqyosda tobora ortib borayotganligi sababli, ingliz tilidan ko'pincha madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida foydalaniladi. Ingliz tili dunyo aholisining aksariyatini birlari bilan bog'laydigan xalqaro tildir. Shu o'rinda til o'rgatish davomida o'qituvchilarning vazifasi faqatgina o'quvchiga tilni vosita sifatida o'rgatish emas, balki o'zi va boshqa xalqlarning madaniy xususiyatlarini ham o'qitish bilan nisbatlanadi. Bu borada til o'rganuvchilarga o'z madaniyati va boshqalarning qadriyatlarini haqida tushuncha berish dolzarb hisoblanadi. Jarayonning jadallashishida madaniyatlararo pragmatik tadqiqotlar hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Nutq harakatlarini amalga oshirishda pragmatik normalar yetakchi o'rin tutib, bu muloqotga kirishuvchilarning qarashlari, bilimlari hamda madaniy qadriyatlarida plyuralizm – ya'ni, turli-tumanlikni keltirib chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, nutq aktlarining madaniy asoslari va ularga bog'liq bo'lgan madaniy tushunchalar har bir til va madaniyatga qarab farq qiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

KIRISH

Nutq aktlari "kommunikativ faoliyat [lar] so'zlash paytida so'zlovchilarning niyatlari va tinglovchilarga ta'sir qilishlari bilan belgilanadi¹". Turli madaniyatlarda turli nutqiy harakatlarning bajarilishiga katta e'tibor berilgan. Bu ko'pincha muloqotda ishtirok etadigan odamlarga tilni ijtimoiy-lingvistik jihatdan mos ravishda ishlatishga yordam berish zarurati bilan bog'liqdir. Bu, ayniqsa, ingliz tilidan kundalik faoliyat uchun turli tildagi odamlar tomonidan foydalaniladigan mamlakatlarda muhimdir. Xususan, turli millatlar yashovchi hamda yildan-yilga sayyohlar tashrifi oshib borayotgan O'zbekistonda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Respublika turizm va sport bosh boshqarmasi tomonidan keltirilgan raqamlarga tayanadigan bo'lsak, xorijiy turistlar soni 2021-yilda 48.9 ming nafardan oshgan. Ma'lum bo'lishicha, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan ichki turizmga deyarli 8 baravarga, xorijiy sayyohlar soniga nisbatan 3,5 baravarga ortgan. Davlat statistika qo'mitasi xabariga ko'ra, 2022-yilning

¹ Bar-Hillel, Yehoshua, 1954, "Indexical expressions," *Mind* 63: 359–79; reprinted in Kasher 1998, vol. 1, pp. 23–40.

may oyida 503,6 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan². Qayd etilishicha, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 363,4 ming nafarga yoki 3,6 barobarga oshgan. Ingliz tilida gapiradigan davlatlarning fuqarolari O'zbekistonga tashrif buyurarkanlar, shundan 15 mingtasi AQSH, yana 1,1 ming nafari Buyuk Britaniyanidan tashrif buyuruvchilar hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, poytaxt Toshkentdan tashqari Buxoro hamda Samarqand shahriga tashrif buyuradigan sayyohlar soni ortdi, bu hududlarda turizmni mahalliy madaniyatlar va qadriyatlar bilan integratsiyalash yo'lida harakatlar yo'lga qo'yildi. Mamlakatning turizm va mehmondo'stlik sanoatiga allaqachon kengaytirilgan sarmoya asosida 2023-yildan boshlab tematik parklar, tabiiy diqqatga sazovor joylar va yanada arzon mehmonxonalarning barpo etilishi global turizmning global muloqotlar sari yo'l boshlayotganligini ko'rsatadi³.

Bunday o'sish mintaqadagi mavjud madaniyatlarning xilma-xilligiga ta'sir o'tkazadi va shu bilan turli madaniyatlar xalqlarining o'zaro muloqot qilish imkoniyatini oshiradi. Biroq, bu sayyohlar, chet elliklar va O'zbekiston uchun til va madaniyat bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu barcha tomonlardan til ko'nikmalari bilan bir qatorda madaniyatlararo muloqot (International Cultural Competence) ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. ICC - bu "boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va mos ravishda muloqot qilish qobiliyati" (Spitzberg 2000, Jandt 2018: 90) bo'lib, uni asosiy sohalaridan biri bu madaniy xabardorlik bo'lib, u mezbbon mamlakat a'zolarining muloqot paytida qanday fikrlashi va o'zini tutishini o'z ichiga qamrab oladi (Jandt 2018).

MUHOKAMALAR VA MULOHAZALAR

Mazkur maqolada asosan o'zbek va ingliz tilida gaplashuvchi xalqlarning muloqotlariga xos xususiyatlarini tadqiq qilarkanmiz, ushbu ikkala madaniyat vakillarining o'ziga xos hamda umume'tirof etilgan jihatlarni imkon qadar ochiqlashga harakat qildik.

O'zbekiston - sayyoramizdagi eng qadimgi etnoslardan biri istiqomat qiluvchi mamlakat. Uning boy tarixi mamlakatning hozirgi mahalliy aholisining turmush tarzining o'ziga xos o'rnini belgilab berdi. O'zbek milliy xarakterining shakllanishiga Islom an'analari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat insonlarning Islom diniga e'tiqod qilishi ularning har kuni besh vaqt namozga rioya qilishlarini va muqaddas Ramazon oyida ro'za tutishlarini talab etadi. Shunga qaramay, o'zbeklar dunyoviy bilimlarga va yangiliklarga begona emaslar. Mos ravishda ular tolerant xarakterga ega bo'lib, boshqa din vakillariga ham bag'rikenglik ko'rsatadilar⁴.

O'zbekistonda ijtimoiy tuzilmaning an'anaviy shakllaridan biri mahalladir. Mahalla jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, u bir xil yaqin joyda yashovchi oilalarni o'z ichiga oladi. O'zaro yordam tamoyillari mahallaning tub negizlaridan biri sanaladi. Mahalla ko'pincha butun qishloq yoki aholi punktini egallaydi. O'zbek oilasida er va otaning xonadon boshlig'i sifatidagi vakolatini, kichikning kattalarga hurmat va itoatkorligini ta'minlovchi qat'iy ierarxiya mavjud. Har qanday oilada bolalarga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatiladi. O'zbekistonliklarning eng taniqli odatlaridan biri bu ularning mehmondo'stligidir. Mehmonlarni kutib olish san'ati o'zbek jamiyatida yuksak qadrlanadi va aniq qoidalarga ega. Mehmonlar uyga kiraverishda kutib olinadi. O'zbeklar bir-biri bilan muloqot qilishni yaxshi ko'radilar. Suhbat har

² <https://uzbektourism.uz/>

³ <https://stat.uz/uz/>

⁴ <https://globalconnect.uz/uzbekistan/traditions/hospitality>

doim oddiy va demokratik tarzda olib boriladi. Mahalliy aholining turli mavzudagi suhbatlar o'tkazish uchun eng sevimli joyi bu choyxonadir. Bu yerda ham do'stona uchrashuvlar, ham ishbilarmonlik muzokaralari o'tkaziladi.

O'zbeklarning kechki ovqatga taklifini rad etish mumkin emas. O'zbeklar bir-birlariga sovg'a-salom, bolalarga shirinliklar olib borishadi. Taklif etilgan joyga juda kechikib borish yaxshi emas, bu uy sohibiga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Uyga kiraverishda oyoq kiyimi yechiladi. Dasturxon odatda markaziy xonada yoki hovlida o'rnatiladi. Ovqat choy ichish bilan boshlanadi va u bilan tugaydi. Mehmon mezbonlar uchun qanchalik qadrli bo'lsa, unga kamroq choy quyadilar. Uy egalari choy uchun tez-tez murojaat qilish uy sohiblariga nisbatan hurmatni ko'rsatadi. Hatto choy ichish haqidagi taklifning rad etilishi mezbonni ranjitishi mumkin. O'zbek choyini ichish chet elliklar ham rioya qilishi kerak bo'lgan turli odatlar bilan bog'liq.

O'zbeklar juda ochiq va do'stona xalq, shuning uchun ular hatto begonalar bilan uchrashganda (faqat erkaklar) qo'l siqishlari odatiy holdir. Do'stlar qo'l siqishish paytida bir-birlarining sog'lig'i va hayotdagi so'nggi o'zgarishlar haqida so'rashadi. Bir-biriga juda yaqin bo'lgan kishilar (erkaklar) quchoqlashib ko'rishishlari ham ancha urf bo'lgan. Ayollar xushmuomalalik bilan, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yadi, bir-biriga o'zaro yaqin ayollar uchrashganda esa ular quchoqlashib, hatto o'pishib ko'rishishlari tabiiy hol. Tashqi ko'rinish, ya'ni kiyinish jihatidan O'zbekistonda unchalik qattiq cheklovlar yo'q. Ammo, agar gap diniy ahamiyatga ega bo'lgan joylarni ziyorat qilish haqida ketsa, kalta va ochiq liboslar kiyish ma'qul ko'rilmaydi hamda qattiq tanqid qilinadi.

O'zbekiston aholisi mojaro yoki tortishuv paytida ham imkon qadar xushmuomalalikni saqlaydi. Ularning mentalitetidagi bu xususiyatning tarixiy kelib chiqishi bor: o'zbeklar uzoq vaqtdan beri savdogar bo'lgan, ular uchun xaridorni xafa qilish foydadan mahrum bo'lishni anglatardi. O'zbekistonda rad etish hech qachon bevosita amalga oshirilmaydi. Eng xilma-xil so'rovlarga an'anaviy javob "xo'p mayli"dir. O'zbeklar ishda ham, qaror qabul qilishda ham, va'dani bajarishda ham shoshilishni yoqtirmaydi. Kelishuvni bajara olmagan o'zbek har qanday yo'l bilan yuzaga kelgan tarang vaziyatni boshqa tomonni norozi qilmasdan hal qilishga harakat qiladi.

Inglizlarda esa ijtimoiy mavqe ko'p masalani hal qiluvchi, me'yorlovchi hamda tartibga soluvchi aspektidir. Sinf holati asosan inglizlarning mentalitetini boshqaradi. Ishchi sinflar, o'rta va yuqori sinflar ularning tafakkurini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy sinf deganda, insonning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holati hisobga olinadi⁵. Mehnatkashlar yoki ishchilar sinfiga kiradigan inglizlar odatda bundan g'ururlanadilar. Ishchi oilalardan chiqqan inglizlar asrlar davomida mehnatda bo'lib, halollikni shior qilib kelgan zamhmatkash kishilardir. Bu odamlarning aksariyati qishloq xo'jaligi yoki sanoat sohalarida ishlaydilar, haftalik yoki oylik maosh oladilar. Ishchi sinfiga mansub bo'lgan oila a'zolari kamdan-kam hollarda ilmiy darajaga ega bo'ladilar, ularning aksariyati ijaraga olingan uylarda yashaydilar. Ular Leyboristlar partiyasini qo'llab-quvvatlaydi va kasaba uyushmalari bilan yaxshi aloqaga ega. Boshqa tomondan, o'zlarini o'rta sinf deb ta'riflaydigan britaniyaliklar yaxshi ma'lumotga ega bo'lishadi va ular xususiy yoki davlat sektorida idoraviy ishlarni bajaradilar. Ular odatda oylik maosh bilan rag'batlantiriladilar va yaxshi ish bilan band bo'lishlariga qaramay, oliy ma'lumot olishadi.

O'rta sinf vakillarining aksariyati Konservativlar partiyasini qo'llab-quvvatlaydi va o'zlari egalik qilgan yoki ijaraga olgan shahar uylarida istiqomat qiladilar. Ular doimo farzandlariga yaxshi ta'lim berishga intiladilar, bu borada ularning oldiga talablar qo'yishga harakat qiladilar.

⁵ <https://wildernessengland.com/english-culture/>

Uchinchi toifa – yuqori tabaqa vakillari, ya'ni aristokratlar, zodagon oiladan kelib chiqqan kishilar bo'lib, ular o'tgan avlodlardan meros bo'lib qolgan boyliklardan bahramand bo'lishadi. Ba'zi badavlat odamlar kompaniyalar, mulklar va shunga o'xshash sarmoyalarga ega bo'lib, bu ularni faqat boshqaruvchanlik kayfiyatida bo'lishlarini ta'minlaydi. Ular villalarda yoki o'z qarorgohlarida yashaydilar.

Munosabat yoki muloqotga kirishayotgan paytlarida sinfiy tafovutlar u qadar ko'zga tashlanmasada, mentalitet masalasi bunga aralashishi mumkin. Milliy mentalitet emas, aynan guruhlar o'rtasida shakllangan mentalitet ko'p hollarda sezilib turadi.

Umuman olganda, inglizlar har bir millatni teng hurmat qiladilar. Biroq, Angliyaning ba'zi qismlarida qora tanlilarga nisbatan nafrat belgilari hali ham uchraydi. Ekaklar yoshidan qat'iy nazar o'zlarini oliyjanob bilib, ayollarni hurmat qiladi. Ular ziyofatlarda, oilaviy va ijtimoiy yig'ilishlarda ayollarga birinchi o'rinni taklif qilishadi. Ular ayollarga eshiklarni ochib, shlyapalarni yechib, ayollarga ta'zim qilish orqali o'z hurmatlarini ko'rsatadilar. Ular, shuningdek, hazilni juda yaxshi ko'radilar. Uchrashuvlarda hazilkash, quvnoq tabiatli kishilar juda mashhur bo'lishadi. Ular tomonidan hazillar ma'lum bir kishini kamsituvchi, yerga uruvchi yoki dilga ozor beruvchi shaklda emas, aksincha, kayfiyatni ko'tarish, muloqot chog'idagi to'siqlarni olib tashlash uchun qo'llaniladi. Inglizlar hech kimning og'zi to'la ovqat bilan gaplashishiga, yig'ilishda yoki gavjum joylarda yo'talishiga toqat qilmaydilar. Ular doimo kimgadir yordam berishga tayyorlar, hatto yo'lda, bekatda, navbatda turganlarida muloqotni juda yaxshi ko'rganlari bois, kamida ob-havo haqidagi mavzu bilan suhbat boshlaydilar. Dasturxon atrofida, nonushta, tushlik va kechki ovqatlarda odob-axloq qoidalariga rioya qiladigan odamlarni hurmat qilishadi. "Kechirasiz", "Rahmat", "Ma'zur tutasiz" kabi diskurslar ingliz xalqining lug'atida eng ko'p qo'llaniladigan jumalardir.

O'zbek va ingliz madaniyatlarida xushmuomalalik va mulozamat muhim o'rin tutadi hamda shu bilan birga, ushbu aqidalar xalqlarning hayot tarziga singib ketgan: insonlarning o'zaro muloqotlarida, yurish-turishlarida mazkur nutq elementlarini kuzatish mumkin.

Frans (1992) "compliment" atamasi aslida italyancha/lotincha "complimento" so'zi negizida shakllanganligini ta'kidlaydi. "Complimento" italyanchada "haqiqatni aks ettiruvchi minnatdorchilik tuyg'usi va qalbning samimiyligini ifodalovchi so'zlar"ni ifodalaydi. Le Robert (1992), Frans tomonidan keltirilgan (1992), italyanchadan "kompliment" so'zining olingan sanasini rasman 1604 yil deb belgilaydi

6

Chick (1996) ning e'tirof etishicha, shu tariqa, aynan 17-asrdan boshlab, xushmuomalalik va halimlik nuqtai nazaridan birovga ehtirom ko'rsatib, uni maqtash yoki alqash "kompliment", ya'ni "iltifot" tarzida qo'llanilib kelinadi. Mazkur asnoda iltifotning turli tafsirlari, tasniflari hamda ta'riflari vujudga kela boshladi. Xususan, Mane (1983) uni bevosita madaniyatga aloqador deb hisoblaydi. Uning nazdida iltifot "shaxs yoki guruhning, hatto jamiyatning so'zlari, hatti-harakatlarini qadr toptiruvchi va namoyon etuvchi ko'zgu'dir". Kohen (1991) va Holms (1994) esa iltifotni ijtimoiylashtiruvchi vositaligini ta'kidlab, uni xayrixohlik va birdamlikni aks ettiruvchi yo'l ekanligiga urg'u berishadi⁷.

Xushmuomalalik (inglizcha "politeness") kategoriyasi zamirida shakllangan nutq akti – iltifot (inglizcha "compliment")ning aynan o'zbek tilidagi xususiyatlari keng qamrovli bo'lib, o'zbek madaniyatida "kompliment" so'zi atama sifatida bir-biriga yaqin bo'lgan qator ishtibohlarni

⁶ Kasher, A. (ed.) (1998). *Pragmatics: Critical Concepts*. (Vols. I–VI). London: Routledge.

⁷ Holmes, J. (1986). Compliments and compliment responses in New Zealand English. *Anthropological Linguistics*, 28(4), 485-508

umumlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, iltifot, maqtoʻv, mulozamat, ragʻbat, eʻtibor yoki xushomad kabi soʻzlarning mujassamlashuvi aynan “kompliment”ning xususiyatini ochib berishga yoʻnaltirilgan.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “iltifot” atamasi arabcha soʻz ekanligi nazarda tutiladi hamda “oʻgʻirish”, “burish”, “lutf qilish”, “eʻtibor”, “marhamat” kabi maʼnolarni ifodalashi qayd etiladi. Soʻzning sharhi sifatida esa kishiga qilingan marhamat, himmat, diqqat-eʻtibor, yaxshi munosabat mazmunida talqin etiladi. Demak, “iltifot” soʻzi mohiyatiga koʻra ijobiy xususiyatni aks ettiradi, shu bilan birga, eʻtibor va marhamat qilish kabi fazilatlarini ham qamrab oladi.

Komplimentlarning qamrovi va mushtarakligi qator sohalar bilan chambarchas bogʻliq. Ularning yuzaga kelishi hamda ularning ijro etilishi bevosita etika, etiket qoidalariga borib taqaladi, albatta.

“Etika” lugʻatida odob-axloq qoidalarining majmui boʻlgan “etiket”ga quyidagi taʼrif berilgan: “etiket” (fransuzchadan – “yorliq”) - odamlarga boʻlgan munosabatning tashqi koʻrinishi (boshqalarga muomala qilish, murojaat qilish va salomlashish shakllari, jamoat joylarida oʻzini tutish) bilan bogʻliq hatti-harakatlar qoidalari toʻplami⁸. Dastlab, bu soʻz “plastinka”, “yorliq” maʼnosiga ega edi. Bundan tashqari, ushbu tayomilning tarixi Fransiya qiroli Lui XIV bilan bogʻliq. Qirollik ziyofatlarida mehmonlar oʻzlarini tutishlari boʻyicha koʻrsatmalar, tomoshalar davomida harakat qilish uchun oʻziga xos qoʻllanma boʻlgan yoʻriqnomalarni oladilar. Vaqt oʻtishi bilan etiket qoidalari jamiyatning ijtimoiy qoidalariga aylandi.

Bizningcha, bugungi kunda etiket deganda, shaxsning maʼlum bir vaziyat, hatti-harakatlari uchun ideal deb tan olingan, umumiy qabul qilingan maʼlumotlar jamlanmasi tushuniladi. Etiket qoidalari odamlar oʻrtasidagi munosabatlarni nazorat ostida ushlab turadi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari tufayli ular jamoat joylarida oʻzlarini qanday tutish va boshqa odamlar bilan qay tariqa munosabatda boʻlishlarini koʻrsatadi (masalan, ziyofatda, konsertda yoki muloqot jarayonida oʻzini qanday tutish kabi holatlarni belgilaydi).

Tashqi koʻrinish odob-axloqi maʼlum bir vaziyatda insonning qanday koʻrinishda boʻlishi kerakligini belgilaydi, yaʼni jamiyatda insonning tashqi koʻrinishiga qoʻyiladigan umumiy qabul qilingan talablar toʻplamidir. Kiyim tanlash, uning ranglari, soch turmagi, aksessuarlar tashqi koʻrinish qoidalariga bogʻliq. Insonning ichki olami uning tashqi koʻrinishi bilan belgilanadi, shuning uchun tashqi koʻrinish odob-axloq qoidalariga rioya qilishga muhim eʻtibor beriladi.

Nutq odobi xulq-atvor va tashqi koʻrinish odobi bilan bir qatorda, odamlarning muloqotiga masʼul boʻlgan umumiy etiket tushunchasining tarkibiy qismidir. Nutq odobi xulq-atvor odoblari bilan chambarchas bogʻliq, chunki kommunikativ hatti-harakatlar ham insonning umumiy hatti-harakatlarining koʻrinishidir. Nutq odob-axloq qoidalarini bilish uning sohibi uchun muhim afzallikdir. Muloqotda xatolarga yoʻl qoʻymaslik, muayyan noqulaylikdan qochish imkoni har doim ham mavjud emas. Qolaversa, nutq odob-axloq qoidalariga ega boʻlish insonni jamiyatda yanada erkin qiladi, atrofdagilar uchun uning obroʻ-eʻtiborini oshiradi, boshqa odamlarning hurmatiga sabab boʻladi.

Kommunikativ xulq-atvor deganda, maʼlum bir lingvomadaniy jamoaning muloqot qoidalari va anʼanalari tushuniladi. U qoida tariqasida, aniq individual xususiyatga ega. Binobarin, iltifot ham oʻziga xosdir. Eʻtirof etish joizki, bevosita iltifotlar komplimentlar aynan qanday inson ekanliklari (ularning bilim darajasi, mantiqiy fikrlashi, xarakteri) ni ochiqlashga yordam beruvchi koʻzgu sifatida ham xizmat qiladi. Belgilangan maqsadlarga va uzoq muddatli natijalarga erishish uchun nutq hatti-harakatlari strategiyalaridan foydalaniladi. Nutq strategiyasi, aslida, nutqning oʻzaro taʼsiri jarayonining maʼlum bir rejasini tuzish va amalga oshirish boʻlib, u muayyan aloqa shartlarini bajarish bilan belgilanadi va

⁸ Hare, R. M. (1970). Meaning and speech acts, *Philosophical Review*. 79, 3–24

motivlar, ehtiyojlar, intilishlar va umuman olganda, kommunikativ akt ishtirokchilarining shaxsiyatini namoyon etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, muloqotni uyg'unlashtirish strategiyasi uchun asosiy maqsad aloqani muvaffaqiyatli o'rnatishdir. Bizning nazdimizda bu jarayon bir psixologik to'siqlarni yengish, umumiy manfaatlarni izlash, muloqot tamoyillarini ochib berish, muloqotga xalaqit beradigan sifatlarni topish, suhbatdoshlarni bir-biriga ko'niktirish va aloqa o'rnatish kabi bir nechta bosqichlardan o'tadi.

Aynan mazkur holatlarda iltifot muloqotni uyg'unlashtirish strategiyasi doirasida, ayniqsa, boshlangan muloqotning birinchi bosqichlarini yengish uchun samarali vositaga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bardovi-Harlig, K., Hartford, B.A.S., Mahan-Taylor, R., Morgan, M. J., & Reynolds, D. W. (1991). Developing pragmatic awareness: Closing the conversation. *ELT Journal*, 45, 4-15.
2. Kecskes, I., & Romero-Trillo, J. (2013). Introduction. In I. Kecskes & J. Romero-Trillo (Eds.), *Research trends in intercultural pragmatics* (pp. 1-3). Boston: Walter De Gruyter.
3. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
4. Расулов, З. И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): автореферат дисс.. кандидата филологических наук/Расулов Зубайдулло Изомович.-Самарканд, 2011.-27 с. Расулов Зубайдулло Изомович.
5. Расулов, З. И. (2017). Особенности моделирования эллиптических предложений в связи с позиционными звеньями. Тил бирликларини қиёсий-типологик ва лингвомаданиятшунослик йўналишларида тадқиқи ва уларнинг тилларни ўқитишдаги ўрни. Илмий мақолалар тўплами. Қ, 2, 54-56. Тил бирликларини қиёсий-типологик ва лингвомаданиятшунослик йўналишларида тадқиқи ва уларнинг тилларни ўқитишдаги ўрни. Илмий мақолалар тўплами. Қ, 2, 54-56.
6. Sadikov Erkin Tursunovich. (2022). Novel Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts. *Eurasian Scientific Herald*, 4, 19–22. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/392>
7. Sadikov Erkin Tursunovich. (2021). IMPLEMENTING AND ASSESSING PRAGMATIC SPEECH ACT DIVERGENCES IN THE ESL CLASSROOM. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(8), 73–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5702899>
8. Sadikov Erkin Tursunovich. (2021). THE ROLE OF PRAGMATICS IN OVERCOMING CHALLENGES OF ACADEMIC WRITING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 247–249. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/481>